



XALQ DEPUTATLARI MIRISHKOR TUMAN KENGASHI QARORI

2022 - yil 29 - aprel

VI-34-41-4-63-K/22

Mirishkor tuman hokimligi

2022-yilning 1-choragida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar hisoboti to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-avgustdagi "Budjet ma'lumotlarining ochiqiligini va budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3917-sonli hamda 2021-yil 13-apreldagi "Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-sonli Qarorlariga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli Qarori, shu bo'yicha xalq deputatlari tuman Kengashining 2021 yil may oyidagi "Mirishkor tuman budjeti mablag'larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo'naltirish tartibi to'g'risida"gi VI-34/54-sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizomning 27, 29-bandlari ijrosini ta'minlash maqsadida xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2021 yil may oyidagi "Mirishkor tuman budjeti mablag'larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo'naltirish tartibi to'g'risida"gi VI-34/54-sonli qarori bilan tasdiqlangan namunaviy Nizomning 27-bandiga asosan 2022-yilning 1-choragida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar yuzasidan tuman hokimligi moliya bo'limi mudiri A.Shukurovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2022 yilning 1-choragida jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar, ya'ni tashabbusli budjetlashtirish natijalari bo'yicha ma'lumotlar va tashabbusli budjetlashtirish natijalari bo'yicha ma'lumotga 1-ilovaga asosan;

2022 yilning ilk mavsumida o'tkazilgan tashabbusli budjet jarayoni yakunlariga ko'ra g'olib bo'lgan takliflarda nazarda tadbirlarni amalga oshirish uchun ajratilgan mablag'larni

buyurtmachi tashkilotlarga ochilgan maxsus (401722) hisob raqamlariga o'tkazilishi to'g'risidagi ma'lumot 2-ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi moliya bo'limi (A.Shukurov) hamda tuman g'aznachilik bo'linmasi (Sh.Nashirov) lar tashabbusli budjetlashtirish natijalari bo'yicha ma'lumotlarni tuman hokimligi axborot xizmati (A.Yazdurdiev) bilan birgalikda keltirilgan ilovalarga muvofiq shakllarda "Ochiq budjet" axborot portali hamda tumanning rasmiy veb-saytlariga joylashtirish va har chorak yakunlariga ko'ra, keyingi chorak birinchi oyining 25 sanasiga qadar joylashtirib borish vazifalari yuklatilsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Mirishkor tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi hamda tuman hokimining birinchi o'rinbosari A.Sariqov zimmlariga yuklatilsin.

Kengash raisi



Sh.Ch.Sanayev

Xalq deputatlari Mirishkor tuman
Kengashining
2022 yil 29 apreldagi
VI-34-41-4-63-K/22-son qaroriga
1-ilova

Tashabbusli budjetlashtirish natijalari bo'yicha

MA'LUMOT

Mirishkor tumani

25.04.2022-yil holatida

1-jadval

№	Ko'rsatkich nomi	Summa (ming so'mda)
1	Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g'olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar	4 721 400

№	Bajarilgan tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni	ko'rsatkichlar		
			o'lchov birligi	miqdori	ajratilgan mablag'lar
1	Ichki yo'llarni (piyodalar yo'lakchasi, yo'l o'tkazgichlar) ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar	8	umumiy uzunligi	6800(метр)	3091000
2	Umumiy ta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash	1	soni	1	900000
3	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		soni		
4	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	1	soni	1	250000
5	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash		soni		
6	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash		soni		
7	Ko'cha chiroqlarini o'rnatish	2	soni	2	480400
8	Qabristonlarni obodonlashtirish		soni		
9	Mahalla binosini ta'mirlash bilan bog'liq tadbirlar		soni		
	Жами	12	x	x	4 721 400

Xalq deputatlari Mirishkor tuman Kengashining
2022 yil 29 apreldagi
VI-34-41-4-63-K/22-son qaroriga
2-ilova

**Fuqarolar tashabbusi jamg'armasidan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan (g'olib deb topilgan) tadbirlarni moliyalashtirish uchun
yo'naltirilgan mablag'lar yuzasidan**

MA'LUMOT

Mirishkor tumani

25.04.2022-yil holatida

№	Tadbirning xos raqami (ID)	Jami to'plangan ovozlar soni	Shundan		Tadbirning qisqacha mazmuni (soxasi)	Tadbirning moliyalashtirilishi (ming so'm)				
			Onlayn ovozlar	SMS orqali		Tadbirni moliyalashtirish uchun ochilgan xisob varaq	Tadbirning fuqaro tomonidan kiritilgan dastlabki qiymati	Tadbirni amalga oshirish qiymati*	Ajratilgan mablag'lar	Buyurtmachi tashkilot
1	620400023	1592	4	1588	Yangi Jeynov QFYdagi shifoxona ichki yo'llarini asfalt qilish(500metr), shifoxona xodimlari va bemorlar uchun aloxida xojatxona, shifoxona uchun qorovulxona qurib berish	401722860102337073101054001	600000,0	250 000	250 000	Tuman Tibbiyot birlashmasi
2	620400091	1292	6	1286	Baraka MFYdagi ichimlik suvi inshooti yulini asfalt qilish 150 metr	401722860102337065200110010	150 000	68 000	68 000	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
3	620400030	1139	5	1134	Baraka MFYdagi 7-sonli maktabda sport zal qurish uchun	401722860102337092100075001	1 000 000	900 000	900 000	Tuman Xalq ta'limi bo'limi

4	620400021	1094	129	965	Mirishkor tuman Chamanzor MFY yullarini tamirlash	401722860102337065200110005	999 000	900 000	900 000	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
5	620400171	916		916	Yangi Mirishkor MFYdagi navruz kuchasi 600 metr kismini asfalt kilish	401722860102337065200110013	330 000	270 000	270 000	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
6	620400005	842	5	837	Svetafor o'rnatish Pomuq shaharchasidan o'tgan "4P92" avtomobil yo'lining Gulobod va Baxoriston mahallalarini bog'lovchi kesishmadagi markaziy chorrahaga svetafor qo'yish	401722860102337065200110004	165 000	165 000	165 000	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
7	620400073	604	11	593	Mirishkor tuman markaziga kirish yo'li (4 K 325 yo'lining) 37 km qismini asfalt qoplamasi yotqizish	401722860102337065200110009	1 000 000	1 000 000	1 000 000	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
8	620400163	522	1	521	Mirishkor tuman Yangiobod MFYga 08 km piyodalar yo'lakchasi qurish	401722860102337065200110011	149 000	149 000	149 000	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
9	620400059	512	7	505	Qurama MFYda 1 km piyodalar yo'lakchasi qurish	401722860102337065200110006	186 000	186 000	186 000	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
10	620400065	308	4	304	Baluj MFYda 14 km piyodalar yo'lakchasi qurish	401722860102337065200110008	260 000	260 000	260 000	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
11	620400168	275	3	272	Mirishkor tuman Qurama mahallasida 31 dona tungi yoritish ko'cha chirog'i o'rnatish	401722860102337065200110012	258 000	258 000	258 000	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
12	620400060	261	1	260	Oltin boshqoq MFYda 38 dona ko'cha chiroqlari o'rnatish	401722860102337065200110007	315 400	315 400	315 400	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi

JAMI

5 412 400

4 721 400

4 721 400

x